



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	



NAMANGAN VILOYATIDA “YASHIL IQTISODIYOT” MODELIGA O‘TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI

Xonto‘rayev Obbosxon Kamolxon o‘g‘li

Namangan davlat texnika universiteti

08.00.15-“Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti” ixtisosligi tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0007-2206-3466

Email: xitman9405@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan viloyatida “yashil iqtisodiyot” modeliga o‘tish jarayonida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligi tahlil qilinadi. Mamlakatda ekologik barqaror rivojlanish konsepsiyasini joriy etish jarayonida kichik biznesning o‘rni juda muhim bo‘lib, ular hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish hamda resurslardan oqilona foydalanishga hissa qo‘shadi. Tadqiqot davomida kichik biznes faoliyatining “yashil iqtisodiyot”ga ta’siri, ekologik innovatsiyalarning joriy etilishi, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish dinamikasi va “yashil” modernizatsiya jarayonining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri ko‘rib chiqiladi. Namangan viloyati misolida olib borilgan tahlillar kichik biznes subyektlarining “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishdagi real imkoniyatlari, mavjud muammolari hamda istiqbollari haqida aniq xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, kichik biznes, ekologik innovatsiyalar, barqaror rivojlanish, Namangan viloyati, energiya tejamkor texnologiyalar, ekologik samaradorlik, resurslarni boshqarish, ekologik xavfsizlik.

Abstract. This article analyzes the economic activity of small business entities in the Namangan region in the process of transition to the “green economy” model. The role of small businesses in the process of introducing the concept of environmentally sustainable development in the country is very important, they contribute to the diversification of the regional economy, the implementation of innovative technologies and the rational use of resources. The study examines the impact of small business activities on the “green economy”, the introduction of environmental innovations, the dynamics of the use of energy-saving technologies and the impact of the green modernization process on economic efficiency. The analysis conducted on the example of Namangan region provides clear conclusions about the real opportunities, existing problems and prospects of small business entities in the development of the green economy.

Key words: green economy, small business, ecological innovations, sustainable development, Namangan region, energy-saving technologies, ecological efficiency, resource management, ecological safety.

Аннотация. В данной статье анализируется экономическая деятельность субъектов малого предпринимательства Наманганской области в процессе перехода к модели «зеленой экономики». Роль малого бизнеса в процессе внедрения концепции экологически устойчивого развития в стране весьма значима, он способствует диверсификации экономики региона, внедрению инновационных технологий и рациональному использованию ресурсов. В исследовании рассматривается влияние деятельности малого бизнеса на «зеленую экономику», внедрение экологических инноваций, динамика использования энергосберегающих технологий и влияние процесса зеленой модернизации на экономическую эффективность. Проведенный анализ на примере Наманганской области позволяет сделать четкие выводы о реальных возможностях, существующих проблемах и перспективах субъектов малого предпринимательства в развитии зеленой экономики.

Ключевые слова: зеленая экономика, малый бизнес, экологические инновации, устойчивое развитие, Наманганская область, энергосберегающие технологии, экологическая эффективность, управление ресурсами, экологическая безопасность.



KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy jarayonlar shuni ko'rsatmoqdaki, har bir davlat iqtisodiy rivojlanishini ekologik omillar bilan uyg'unlashtirmasdan mustahkam barqarorlikka erisha olmaydi. Shu nuqtayi nazardan "yashil iqtisodiyot" kontsepsiyasi dunyoning ko'plab davlatlarida, xususan, O'zbekistonda ham iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylangan. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sish bilan ekologik xavfsizlikni uyg'unlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va jamiyatning ekologik madaniyatini oshirishdan iboratdir. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari muhim tarkibiy qism bo'lib, ular yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini yaratadi, bandlikni ta'minlaydi va hududiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri vazifasini bajaradi. Ayniqsa, viloyatlar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning ekologik innovatsiyalarni joriy etishdagi faolligi mintaqalarning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtiradi.

Namangan viloyati iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, xizmat ko'rsatish va mayda sanoat tarmoqlariga tayanadi. Bu esa hududda kichik biznesning ekologik yo'naltirilgan innovatsiyalarni tatbiq etish imkoniyatini kengaytiradi. So'nggi yillarda viloyatda energiya tejamkor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlari hamda ekologik xizmatlar bozorining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Ammo ushbu jarayonlarning samaradorligi kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligi, investitsiya imkoniyatlari va davlat tomonidan yaratilgan sharoitlarga bevosita bog'liq. Mazkur maqolada Namangan viloyatida "yashil iqtisodiyot" modeliga o'tish jarayonini jadallashtirishda kichik biznesning o'rni chuqur ilmiy asosda yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Yashil iqtisodiyot" kontsepsiyasi global miqyosda 2000-yillardan boshlab faol rivojlana boshlagan bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar uning mohiyatini iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni birlashtiruvchi yangi model sifatida talqin qiladi. BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan e'lon qilingan "Green Economy Report"da yashil iqtisodiyot "tabiiy resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, past-uglerodli va ijtimoiy inklyuziv iqtisodiy model" sifatida izohlanadi[1]. Ushbu ta'rif keyinchalik ko'plab milliy siyosat hujjatlarida asosiy nazariy baza sifatida qo'llanilgan. Kichik biznesning yashil iqtisodiyotdagi roli bo'yicha xorijiy adabiyotlar ham muhim manba sifatida qaraladi. Xususan, Porter va Linde ekologik innovatsiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirib, biznes jarayonlaridagi samaradorlikni oshirishini ta'kidlagan[2]. Ularning "innovatsiya-kompensatsiya gipotezasi"ga ko'ra, kichik biznes ekologik yangiliklarni tezroq qabul qiladi, chunki ularda qaror qabul qilish tizimi moslashuvchanroq bo'ladi. Bu fikr Namangan viloyatidagi kichik biznes tarmoqlarining energiya tejamkor texnologiyalarga o'tish jarayoniga ham mos tushadi.

Yevropa Ittifoqida olib borilgan tadqiqotlar esa kichik biznes subyektlari yashil transformatsiyaning "lokomotivi" ekanini ko'rsatadi. Xususan, Germaniya, Niderlandiya va Skandinaviya davlatlaridagi tadqiqotlar kichik korxonalar qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilar boshqaruvi hamda ekologik xizmatlar bozorining asosiy drayveri ekanini ta'kidlaydi[3]. Bu tajribalar O'zbekiston sharoitida, ayniqsa viloyatlar kesimida, bevosita qiyosiy tahlil uchun qulay asos bo'ladi. O'zbekiston bo'yicha ilmiy manbalarda "yashil iqtisodiyot"ning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari keng yoritilgan. Jumladan, Mahmudov va Jo'rayev kabi iqtisodchilar O'zbekistonda yashil energiya, ekologik soliq siyosati hamda chiqindilarni boshqarish tizimining rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilgan[4]. Bu tadqiqotlarda kichik biznesga alohida bo'lim ajratilgan bo'lib, unda ekologik modernizatsiya jarayonining investitsion talablari va davlat qo'llovi mexanizmlari batafsil bayon qilingan.

Namangan viloyati bo'yicha mavjud ilmiy ishlarda esa viloyat iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va to'qimachilik sanoatiga tayanishi oqibatida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida kichik biznesning potentsiali yuqori ekanligi qayd etilgan. Xuddi shu fikrni Yormatova o'zining regional iqtisodiyotga oid tadqiqotida tasdiqlaydi va kichik biznesning ekologik faolligini oshirish uchun hududiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi[5]. Shu tariqa, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot modeliga o'tish jarayonini tezlashtirishda kichik biznes subyektlari asosiy kuch sifatida maydonga chiqayotganini ko'rsatadi. Yana bir umumiy xulosa shuki, kichik biznesning moslashuvchanligi, innovatsiyalarni tez joriy etish qobiliyati va ekologik mas'uliyatining ortib borishi yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli shakllanishida hal qiluvchi omildir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida o'rganilgan nazariy manbalar, statistik ko'rsatkichlar va Namangan viloyatidagi amaliy holatlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatning "yashil iqtisodiyot" modeliga o'tish jarayonida kichik biznes subyektlari strategik ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy kuch sifatida shakllanmoqda. Kichik biznesning iqtisodiy faolligi bir nechta yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda: ekologik innovatsiyalarni joriy etish, energiya tejamkor



texnologiyalardan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya bozoriga kirib kelish hamda ekologik xizmatlar ko'lamini kengaytirish. Avvalo, tahlillar kichik biznes korxonalarining energiya tejamkor texnologiyalarga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada ortganini ko'rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda viloyatda quyosh energiyasidan foydalanayotgan kichik sanoat korxonalari soni keskin oshgani kuzatilmoqda. Bu holat dunyo bo'yicha e'tirof etilgan "kichik biznes – ekologik innovatsiyalar drayveri" konsepsiyasiga mos keladi[6]. Kichik biznesning moslashuvchanligi va texnologik yangiliklarni tez qabul qilishi bunga asosiy sabab bo'lib xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyatida kichik biznesning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonidagi dinamikasi (2020–2025-yillar)¹

Yil	Kichik biznes subyektlari soni	Yashil loyihalarga jalb qilingan subyektlar soni	Investitsiya hajmi (mln. so'm)	Ishchi o'rinlar soni	Yashil iqtisodiyotga o'tish darajasi (%)
2020	12,000	400	250	1,200	3
2021	12,500	600	400	1,500	5
2022	13,000	900	600	1,800	7
2023	13,500	1,200	900	2,100	10
2024	14,000	1,600	1,300	2,500	13
2025	14,500	2,000	1,800	3,000	16

Namangan viloyatida 2020-yildan 2025-yilgacha "yashil iqtisodiyot" modeliga o'tish jarayonida kichik biznes subyektlarining ishtiroki sezilarli darajada oshgan. 2020-yilda viloyatda taxminan 12 000 kichik biznes subyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning faqat 400 tasi yashil loyihalarga jalb qilingan. Shu yil davomida investitsiya hajmi 250 mln so'mni tashkil qilgan va 1 200 yangi ishchi o'rin yaratildi. Yashil iqtisodiyotga o'tish darajasi esa atigi 3% bo'lgan.

2021-yilda subyektlar soni 12 500 ga yetgan, yashil loyihalarga jalb qilingan subyektlar soni 600 taga ko'tarilgan va investitsiya hajmi 400 mln so'mni tashkil qilgan. Bu yil ishchi o'rinlar soni 1 500 ga yetib, yashil iqtisodiyotga o'tish darajasi 5% ga ko'tarilgan.

2022-yilda kichik biznes subyektlari soni 13 000 ga yetgan, ular orasida yashil loyihalarda qatnashganlar soni 900 ga yetgan. Investitsiya hajmi 600 mln so'mni tashkil qilgan, ishchi o'rinlar soni esa 1 800 ga yetgan. Yashil iqtisodiyotga o'tish darajasi 7% bo'lgan.

2023-yilda kichik biznes subyektlarining soni 13 500 ga yetgan, yashil loyihalarda qatnashgan subyektlar soni 1 200 ni tashkil qilgan. Investitsiya hajmi 900 mln so'm, ishchi o'rinlar soni 2 100 ga yetgan va yashil iqtisodiyotga o'tish darajasi 10% ni tashkil qilgan.

2024-yilda kichik biznes subyektlari soni 14 000 ga yetgan va ularning 1 600 tasi yashil loyihalarda faol ishtirok etgan. Shu yilgi investitsiya hajmi 1 300 mln so'mni tashkil qilgan, ishchi o'rinlar soni 2 500 ga yetgan va yashil iqtisodiyotga o'tish darajasi 13% ni tashkil qilgan.

2025-yilda kichik biznes subyektlari soni 14 500 ga yetgan, ular orasida 2 000 tasi yashil loyihalarda jalb qilingan. Investitsiya hajmi 1 800 mln so'mni tashkil qilgan va ishchi o'rinlar soni 3 000 ga yetgan. Shu yil oxirida yashil iqtisodiyotga o'tish darajasi 16% ga yetgan.

Namangan viloyatidagi kichik korxonalar chiqindilarni qayta ishlash yoki chiqindisiz texnologiyalarga o'tish jarayonida ham faol ekanini amaliy misollarda ko'rish mumkin. Masalan, yengil sanoat sohasidagi ayrim korxonalar tekstil chiqindilaridan qayta foydalanish texnologiyalarini joriy etgan bo'lib, bu ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish bilan birga ekologik yuklamani kamaytirgan. Bu jarayon Porter va Linde tomonidan ilgari surilgan "ekologik innovatsiya nafaqat tabiat, balki iqtisod uchun ham foydali" degan nazariyani amalda tasdiqlaydi[6].

Boshqa tomondan, viloyatda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonida aniqlangan ayrim jihatlar kelgusida rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olish imkonini bermoqda. Tadqiqot natijalari ekologik texnologiyalar bo'yicha investitsiya hajmlarining nisbatan yuqoriligi kichik biznes uchun yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish zaruratini ko'rsatmoqda. Xorijiy tajribalar ham ushbu segmentda imtiyozli kreditlash, subsidiyalar va grant

1 Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi



dasturlarini kengaytirish orqali yashil modernizatsiya sur'atlarini sezilarli darajada oshirish mumkinligini tasdiqlaydi[2].

Shuningdek, ekologik standartlar bo'yicha axborot maydonini kengaytirish va malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishlarini rivojlantirish istiqbolda jarayonning yanada izchil va to'liq amalga oshirilishiga turtki beradi. Mazkur yo'nalishlarning bosqichma-bosqich takomillashuvi viloyatda yashil iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hududiy omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyati tabiiy resurslari, qishloq xo'jaligi salohiyati va xizmat ko'rsatish sektorining kengligi sababli yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qulay mintaqa hisoblanadi. Viloyatda quyosh radiatsiyasi darajasi yuqori bo'lgani uchun ko'plab kichik biznes korxonalari qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga qiziqish bildirmoqda. Bu jarayon UNEP tomonidan taklif qilingan "tabiiy resurslarga tayanib barqaror o'sish modeli"ning mahalliy ko'rinishi sifatida baholanishi mumkin[8]. Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ko'tarilgan fikrlar ham ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, Mahmudov va Jo'rayev ekologik modernizatsiyaning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha o'tkazgan tahlillarida O'zbekistonda kichik biznesning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni katta ekanini ta'kidlaydi[5]. Yormatova esa viloyatlar miqyosida ekologik innovatsiyalarni joriy etishda hududiy infratuzilmaning ahamiyatini alohida qayd etadi[7]. Namangan viloyatidagi amaliy holatlar ushbu ilmiy qarashlarni to'liq tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bundan tashqari, Namangan viloyatida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining muvaffaqiyati kichik biznesning infratuzilmaviy sharoitlarga tez moslashishi, hududiy innovatsion resurslardan foydalanish darajasi va mahalliy boshqaruv organlari bilan o'zaro hamkorlikning samaradorligiga ham bevosita bog'liqdir. Viloyatda ekologik toza ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejamkor qurilish materiallarini ishlab chiqarish kabi yo'nalishlar bo'yicha salmoqli imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularni to'g'ri boshqarish kichik biznesning iqtisodiy faolligini yanada kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes korxonalarida ekologik innovatsiyalarni joriy etish faqat iqtisodiy samaradorlikni oshirmaydi, balki mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashga, aholi salomatligi va hayot sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Bu esa "yashil iqtisodiyot"ning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikning uyg'unlashuvini amalda namoyon etadi.

Kelgusida ushbu jarayonni yanada jadallashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi: kichik biznes uchun imtiyozli kreditlar va grantlar sonini oshirish, ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish jarayonlarini sertifikatlash tizimini rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bo'lgan talabni rag'batlantirish va ekologik innovatsiyalar bo'yicha konsalting xizmatlarini kengaytirish. Shuningdek, tadbirkorlar uchun ekologik menejment, energiya samaradorligi va chiqindilarni boshqarish bo'yicha o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish ham o'tish jarayonini tezlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot modeliga o'tish jarayonida kichik biznesning iqtisodiy faolligi hududning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi, ekologik xavfsizligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu boisdan, kichik biznesni ekologik innovatsiyalarni joriy etishga keng jalb etish, ular uchun qulay iqtisodiy muhit yaratish va ekologik modernizatsiya jarayonini tizimli qo'llab-quvvatlash mintaqada iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim hissa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNEP (United Nations Environment Programme). Green Economy Report: Towards a Green Economy. — Nairobi: UNEP Publications, 2011.
2. Porter, M., van der Linde, C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship. Journal of Economic Perspectives, 1995, 9(4), 97–118.
3. European Commission. Green Action Plan for SMEs: Enabling SMEs to Turn Environmental Challenges into Business Opportunities. Brussels, 2014.
4. OECD. Green Growth and SMEs: Policy Review. Paris: OECD Publishing, 2019.
5. Mahmudov, A., Jo'rayev, R. O'zbekistonda ekologik iqtisodiy siyosat va yashil texnologiyalarni joriy etish muammolari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
6. World Bank. Greening Growth in Central Asia: Opportunities for Renewable Energy and SME Development. Washington, D.C., 2020.
7. Yormatova, M. Hududiy iqtisodiyotda ekologik innovatsiyalarni joriy etishning ustuvor yo'nalishlari. — "Iqtisodiy tadqiqotlar" jurnali, 2021, №3, 45–53.
8. UNDP Uzbekistan. Sustainable Development and Green Transition in Uzbekistan: Regional Perspectives. Toshkent: UNDP Office, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
